



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 23-aprel, № 80 (9251)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



IQLIM O'ZGARISHLARIGA QARSHI KURASH YO'LIDAGI HAMJIHATLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishida ishtirok etish uchun 21-22-aprel kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ldi.



Davlatimiz rahbari Qozog'istonga amaliy tashrifi dasturi doirasida 22-aprel kuni Markaziy Osiyo

mamlakatlari, Mo'g'uliston, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston delegatsiyalari rahbarlari bilan birgalikda Ostona

shahridagi "EXPO" xalqaro ko'rgazmalar markazida tashkil etilgan Mintaqaviy ekologik sammit

ko'rgazmasidagi milliy pavilyonlarni borib ko'rdi.

"MES – 2026" diqqat markazida ekologik siyosatga kompleks yondashuvni aks ettiruvchi sakkizta ustuvor yo'nalish turibdi: iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, oziq-ovqat xavfsizligi va ekotizimlar barqarorligini ta'minlash, tabiiy xavf-xatarlarga moslashish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish, havo ifloslanishini kamaytirish va chiqindilarni samarali boshqarish, ekologik maqsadlarga erishish mexanizmlarini rivojlantirish, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish, adolatli va inkluziv "yashil" o'tish, ekologik hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish. Sammit kun tartibi barqaror rivojlanishning ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni ham qamrab olgan.

Tadbirda ishtirok etayotgan mamlakatlarning milliy pavilyonlarida ularning ushbu yo'nalishlardagi yutuqlari va kelgusi rejalarini namoyish etilmoqda.

Interfaollik va multimedia elementlariga ega ko'rgazma-taqdimot maydoni shaklida barpo etilgan O'zbekiston pavilyoni mamlakatimizning ekologiya, iqlim o'zgarishi va Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi sohasidagi davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Shuningdek, ekspozitsiya O'zbekistonning ekologiya sohasida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qo'shayotgan hissasini namoyon etadi.

Oliy martabali mehmonlarga ekologik taraqqiyotning zamonaviy modelini shakllantirishga qaratilgan asosiy tashabbuslarni o'z ichiga olgan ekspozitsiya taqdim etildi. "Chiqindisiz hudud", "Toza havo", "Yashil makon", "Ekomadaniyat", "Biomeros" va "Ekologik ta'lim" kabi umummilliy loyihalar shular jumlasidan.

Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, eng avvalo, BMT tuzilmalari bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida bo'lib o'tayotgan Mintaqaviy ekologik sammitning ochilish marosimida ishtirok etdi. Tadbirda Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyin Xurelsux, Armaniston Prezidenti Vaagn

Xachaturyan, Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevni sammitning muvaffaqiyatli tashkil etilgan bilan samimiy tabriklab, uning ekologik xavf-xatarlarning o'zaro bog'liqligi va ularni birgalikda hal qilish zarurligini o'zida mujassam etgan "Barqaror kelajak uchun umumiy nigoh" degan bosh g'oyasini to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Prezidentimiz mazkur uchrashuv o'tgan yili Samarqand iqlim forumida boshlangan muloqotning mantiqiy davomi ekanini ta'kidlab, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik diplomatiyasi tizimli va izchil tus olib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganidan mamnunligini ta'kidladi.

O'zbekiston yetakchisi qayd etganidek, bugungi kunda ekologik muammolarni global iqlim o'zgarishlaridan ayri holda ko'rib chiqib bo'lmaydi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Ma'buuz xizmatli surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MINTAQAVIY EKOLOGIK SAMMITDAGI NUTQI

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Xonimlar va janoblar!

Avvalo, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga Mintaqaviy ekologik sammitni o'tkazish borasidagi tashabbusi hamda uni yuksak darajada tashkil etgani va an'anaviy iliq mehmondo'stlik uchun alohida minnatdorlik izhor etmoqchiman.

O'zbekiston sammitining ekologik xavf-xatarlarning o'zaro chuqur bog'liqligi va ularni birgalikda hal qilish zarurligini ifoda etadigan "Barqaror kelajak uchun umumiy nigoh" degan bosh g'oyasini to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi uchrashuv o'tgan yili Samarqand iqlim forumida boshlangan muloqotning mantiqiy davomidir. Quvonarlisi shundaki, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik diplomatiyasi tizimli va izchil tus olib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Bugungi kunda ekologik muammolarni global iqlim o'zgarishlaridan ayri holda ko'rib chiqib bo'lmaydi.

Global isish sur'atlarining tezlashishi davom etmoqda, Markaziy Osiyo mintaqasida esa harorat ikki barobar tezroq ko'tarilmoqda. Mintaqa muzliklarining qariyb uchdan bir qismi yo'qoldi, yog'ingarchilik tartibining beqarorligi kuzatilmoqda, suv resurslari tanqisligi ortib bormoqda. Yer maydonlarining 80 million gektari allaqachon degradatsiyaga uchradi.

Global ekologik birdamlik zaiflashayotgani chuqur xavotir uyg'otmoqda. Deklaratsiyalar va da'vatlar resurslar bilan mustahkamlanmayapti. Global iqlim o'zgarishiga eng kam ta'sir ko'rsatayotgan mamlakatlar uning oqibatlari bilan yana yakkayu yolg'iz qolmoqda.

Xalqaro hamjihatlik, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarning

iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyalashtirish, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan o'z vaqtida, adolatli va to'siqsiz foydalanish imkoniyati bilan ta'minlanishida namoyon bo'lishi lozim deb qat'iy ishonamiz.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman, Markaziy Osiyo davlatlari atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini mintaqaviy hamkorlikning eng muhim ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. "Markaziy Osiyo uchun yashil kun tartibi" mintaqaviy dasturi, Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mintaqaviy strategiya hamda Barqaror rivojlanish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy dastur bunday sheriklikka misol bo'la oladi.

Bugungi forumda "Markaziy Osiyo ekologik birdamligi" deklaratsiyasi, shuningdek, BMT tuzilmalari bilan yaqin sheriklikda amalga oshiriladigan, 2030-yilgacha mo'ljallangan Harakatlar dasturining qabul qilinishi umumiy ishimizga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Hurmatli hamkasblar!

O'zbekiston ekologik barqarorlikni shakllantirish bo'yicha aniq maqsadli va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

"Yashil makon" loyihasi doirasida qariyb 1 milliard tup daraxt va buta ekildi. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ortiq maydonda o'rmonzorlar barpo etilib, yangi "yashil belbog'"lar yaratilmoqda. Bizning tashabbusimiz bilan BMT Bosh Assambleyasining "O'rmonlashtirish va o'rmonlarni tiklash bo'yicha harakatlar o'n yilligi" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Suvni tejash borasidagi keng ko'lamli sa'y-harakatlar natijasida biz yiliga 10 milliard kubometr suvni iqtisod qilmoqdamiz. Generatsiya quvvatlarimizda "yashil" energetika ulushi allaqachon 30 foizga yetdi, joriy o'n yillikning oxiriga borib esa 50 foizdan oshadi. Biz Parij bitimi bo'yicha zararli chiqindilarni 35 foizga kamaytirish majburiyatini muddatidan

oldin bajardik va oldimizga yangi maqsad – ularni 2035-yilgacha ikki barobar qisqartirish vazifasini qo'ydik.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar faol amalga oshirilmoqda. Joriy yilda chiqindilarni yoqish bo'yicha ikkita yangi zavod ishga tushiriladi, yana 9 tasi esa kelgusi ikki yil davomida faoliyatini boshlaydi. Ularning ishga tushirilishi har yili 5,5 million tonna chiqindini utilitatsiya qilish, 2,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, chiqindilar hajmini 1 million tonnadan ortiqqa qisqartirish imkonini beradi.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Ishonchim komilki, Markaziy Osiyo davlatlari iqlim va ekologiya muammolari qarshisida, xavf-xatarlarni yangi "o'sish nuqtalari"ga aylantirgan holda, hamkorlikda harakat qilishi lozim. Shu munosabat bilan bir qator aniq takliflarni taqdim etmoqchiman.

Birinchi. Atmosfera havosining sifati yomonlashayotgan sharoitda "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini ta'sis etish mintaqa aholisi salomatligini himoya qilishda muhim qadam bo'ladi deb hisoblayman.

Konsorsium sanoatni modernizatsiya qilib, havoga chiqarilayotgan zararli moddalar uchun tozalash tizimlarini joriy etadigan "yashil" moliyalashtirishning qo'shma operatoriga aylanishi mumkin.

Ikkinchi. O'zbekistondagi Yashil universitet huzurida faoliyat yuritayotgan Cho'llanishga qarshi kurashish, qurg'oqchilikning oldini olish hamda qum va chang bo'ronlari haqida barvaqt ogohlantirish markaziga mintaqaviy maqom berishni taklif etaman.

Markaz bazasida ilmiy salohiyatni birlashtirish yerlarning degradatsiyasi hamda tuz va changli bo'ronlarni monitoring qilish bo'yicha kuchli tizimni yaratish imkonini beradi.

(Davomi 2-betda).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OROLNI QUTQARISH XALQARO JAMG'ARMASI TA'SISCHI DAVLATLARI RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Avvalo, samimiy mehmondo'stlik va sammitimizni alo darajada tashkil etgani uchun Qozog'iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayev Janobi Oliylariga bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Qozog'istonlik do'stlarimizning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga samarali raisligini yuksak baholaymiz. O'zaro ishonch va muloqotni mustahkamlash, Jamg'arma doirasidagi loyihalarni amalga oshirish va uning faoliyatini mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar bajarildi.

Bugun qabul qilinayotgan yakuniy hujjatlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Ularning amalga oshirilishi mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash va Orol dengizi havzasida barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!
Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi mamlakatlarimiz mustaqilligining ilk davrida Markaziy Osiyodagi suv bilan bog'liq, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sohalaridagi eng muhim masalalarni hal etish uchun tashkil etilgan noyob mintaqaviy tuzilma bo'lib qolmoqda.

Jamg'arma mintaqada sifat jihatdan yangi davlatlararo munosabatlarni qaror toptirish, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga katta hissa qo'shdi.

Yo'lga qo'yilgan o'zaro hamkorlik tizimi tufayli Jamg'arma Orol dengizi havzasi suv resurslarini kelishilgan holda boshqarishni ta'minlashga erishdi.

Markaziy Osiyoda suv taqchilligining kuchayishiga olib kelayotgan iqlim o'zgarishlari va suv iste'moli ko'payib borayotgan sharoitda

Jamg'armaning roli va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Ekspertlarning baholariga ko'ra, 2040-yilga borib, Orol dengizi havzasida suv resurslari taqchilligi deyarli ikki barobar – yiliga 20 milliard kubometr gacha oshishi mumkin. Bu ichimlik suvi ta'minoti, ekologiya, agrar sektor, energetika va ijtimoiy barqarorlik uchun qo'shimcha xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi.

Shunday bir paytda mamlakatlarimiz suv resurslaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha eng quyi o'rnlarni egallab turibdi. Qishloq xo'jaligida bir dollar miqdoridagi qo'shimcha qiymatni yaratish uchun davlatlarimiz deyarli uch kub metr suv sarf etmoqda, dunyoda esa bu ko'rsatkich o'rtacha ikki barobar kam.

Mintaqada yuzaga kelayotgan vaziyat bizdan suv-energetika va ekologiya sohalarida puxta o'ylangan hamda kompleks yechimlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi.

Hurmatli hamkasblar!
Bugun ertalab Mintaqaviy ekologik sammitda O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida aytib o'tgan edim.

Hozir esa Jamg'armaning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Qisqa muddatda O'zbekistondagi barcha sug'oriladigan yerlarning 60 foizida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi, irrigatsiya tarmoqlarini betonlash 40 foizga yetkazildi. Nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish hisobiga suv

xo'jaligida energiya iste'moli qariyb 30 foizga qisqartirildi. 600 mingdan ortiq suvdan foydalanuvchilar va 4 million gektardan ziyod sug'oriladigan yerlarni qamrab oladigan yagona raqamli ma'lumotlar bazasi shakllantirilmog'da.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tufayli har yili 10 milliard kubometrdan ortiq suv resurslarini tejash ta'minlanmoqda. 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkich 15 milliard kubometrni tashkil etadi. Mazkur choralarning barchasi kompleks va izchil xarakterga ega bo'lib, o'tgan yili qabul qilingan Suv kodeksida o'z ifodasini topgan.

Qadri do'stlar!
Kelgusi yildan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga raislik O'zbekistonga o'tadi.

Biz Jamg'armani mintaqaviy integratsiyani muhim drayverlardan biriga aylantirish niyatidamiz.

Shu munosabat bilan raisligimizning ustuvor yo'nalishlari haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman.

Birinchi. Jamg'armaning faoliyatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Yaratilgan poydevor asosida Jamg'armaning tuzilmasi va shartnomaviy-huquqiy bazasini takomillashtirishni davom ettirish, uning organlari vakolatlarini aniq taqsimlashni ta'minlash zarur.

Shu maqsadlar uchun tashkil etilgan mintaqaviy ishchi guruhi 15 ta majlis o'tkazdi. Jamg'arma faoliyatidagi muammolar tahlil qilindi, uning vazifa va funksiyalari yanada aniq belgilab olindi. Endi barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga olgan holda uning tuzilmasi, normativ-huquqiy baza va moliyalashtirish mexanizmlarini kelishib olish zarur.

(Davomi 2-betda).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MINTAQAVIY EKOLOGIK SAMMITDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Uchinchi. Texnologik o'tish jarayonlarini tezlashtirish uchun "Markaziy Osiyo yashil savdo yo'lagi"ni shakllantirishni taklif etaman.

Imtiyozli bo'xona tartiblarini joriy etish va ekomahsulotlar uchun sertifikatlarni o'zaro tan olish ishlab chiqarishni jadal modernizatsiya qilish va mahsulotlarimizning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

To'rtinchi. Markaziy Osiyo iqlim loyihalarining yagona investitsiya portfelini yaratish keyingi qadam bo'lishi kerak.

Bu bizga tarqoq tashabbuslar bilan emas, balki mintaqani rivojlantirish bo'yicha yaxlit strategiya bilan harakat qilish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, uni amalga oshirish uchun sheriklarimizda qiziqishni kuchaytiradi.

Beshinchi. Markaziy Osiyo atrof-muhitidagi o'zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratish ham mintaqamiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Aminmanki, bu atlas mintaqadagi cho'llanish, tuproq degradatsiyasi jarayonlari va suv resurslari holati dinamikasini yaqqol ifoda etadigan fundamental ilmiy-tahliliy bazaga aylanadi.

Oltinchi. Biologik xilmaxillikni saqlash uchun "Markaziy Osiyo Qizil kitobi"ni birgalikda ishlab chiqishni taklif etamiz. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining Toshkentdagi mintaqaviy ofisi bu ishda muvofiqlashtiruvchi bo'lishi mumkin.

Mintaqa "Qizil kitob"i yo'qolib borayotgan turlarning shunchaki ro'yxatidan iborat bo'lib qolmasdan, sohada hamkorlikdagi ishimiz uchun amaliy platformaga aylanishi lozim.

Yettinchi. Iqlim kun tartibi va ekologik

madaniyatni ilgari surish uchun ekologik ta'lim va yoshlarni faol jalb etish juda muhim. Shu maqsadda Bokuda bo'lib o'tgan COP-29 anjumani davomida mamlakatlarimiz yoshlari ishtirokida Ekologiya bo'yicha maslahat qo'mitasi tuzilgan edi. Ushbu qo'mita platformasida 2027-yilda O'zbekistonda Butunjahon yoshlar iqlim forumini o'tkazishni taklif etaman.

Sakkizinchi. Ekologik kun tartibini ilgari surish doirasida shu yilning 31-may - 5-iyun kunlari Samarqandda Global ekologik fondning sakkizinchi assambleyasi, sentabr oyi oxirida esa Suvni tejash bo'yicha Butunjahon forumi bo'lib o'tadi.

Sizlarni ushbu xalqaro anjumanlarda faol ishtirok etishga taklif etaman. Aminmanki, ularning natijalari mamlakatlarimiz va butun mintaqaning barqaror rivojlanishiga qaratilgan amaliy tashabbuslarni ro'yobga chiqarishga salmoqli hissa qo'shadi.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Zamonaviy ekologik tahdidlar mamlakatlarimiz barqarorligini sinovdan o'tkazmoqda.

Bugun qabul qilinayotgan hujjatlarining hayotga to'liq tatbiq etilishi bizga nafaqat tabiatdagi kuchayib borayotgan xavf-xatarlarga samarali moslashish, balki ularni texnologik yangilanish, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikning kuchli omiliga aylantirish imkonini beradi.

Ishonchim komil, ko'p asrlik yaxshi qo'shnichilik an'anasiga tayangan va qat'iy siyosiy irodamizni namoyan etgan holda, biz Markaziy Osiyoni ekologik farovonlik va barqaror rivojlanish makoniga aylantiramiz. E'tiboringiz uchun rahmat.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING ORO'LNQ QUTQARISH XALQARO JAMG'ARMASI TA'SISCHI DAVLATLARI RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Jamg'arma organlarining vakolatlarini kengaytirish, maqomi va mas'uliyatini oshirish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komilki, ushbu masalalarning barchasi bo'yicha oqilona murosaga kelamiz.

Qardosh Qirg'iz Respublikasining Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatidagi to'laqonli ishtiroki qayta tiklanishga chin dildan umid qilamiz. Bu Jamg'armaning yanada mutanosib va uzoq muddatli qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi. Jamg'arma kun tartibini Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari qarorlari bilan uyg'unlashtirish.

Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy rivojlanishning asosiy siyosiy yo'nalishlarini shakllantirmoqda. Shu bois mazkur sammitlar qarorlari va Jamg'arma faoliyati o'rtasida yaqin aloqani ta'minlash muhimdir.

Bu kabi uchrashuvlar davomida oliy darajada kelishilgan barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari Jamg'armaning tarmoq mexanizmlari orqali ham amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

Uchinchi. Jamg'arma dastur va loyihalari samaradorligini oshirish.

Orol dengizi havzasi bo'yicha to'rtinchi dastur doirasida 34 ta mintaqaviy loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. Afsuski, bugungi kunga qadar uning natijadorligini baholash bo'yicha yagona yondashuv ishlab chiqilmagan.

Shu munosabat bilan biz dastur ijrosi monitoringiga samaradorlikning hal qiluvchi indikatorlarini kiritishni taklif etamiz. Bu ijobiy o'zgarishlarni kuzatish, muammoli jihatlarni aniqlash hamda xalqaro hamkorlardan qo'shimcha mablag' va texnik ko'mak jalb etishga yordam beradi.

To'rtinchi. Jamg'armaning ustuvor dasturlari uchun mavjud ta'sirchan moliyalashtirish vositalaridan foydalanish.

Masalan, BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sherklik trust fondi platformasidan foydalanishni taklif etamiz. U moliyaviy resurslarni jamlash hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega.

Biz Trast fondning mandati va geografik qamrovini birgalikda butun Orol dengizi havzasiga kengaytirish imkoniyatini ko'rib chiqishimiz mumkin. Bu barcha davlatlar hududida hayotiy muhim ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun maqsadli investitsiyalarni yo'naltirish imkonini beradi.

Beshinchi. Jamg'arma va boshqa mintaqaviy tuzilmalar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi suv-energetika masalalari, muzliklar va tog' ekotizimlarini saqlash, iqlim o'zgarishiga moslashish, cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha samarali mintaqaviy platformalar bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Xususan, Jamg'armaga Toshkentdagi Yashil universitet qoshidagi Cho'llanishga qarshi kurashish markazi bilan hamkorlikda maqsadli loyihalarni amalga oshirishni taklif etamiz.

Oltinchi. Xalqlarimizning suvga hayot manbai sifatida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish borasidagi ko'p asrlik an'analarni qayta tiklash.

Ko'rinib turibdiki, agar jamiyatning suvga bo'lgan munosabati o'zgarmasa, hech qanday muhandislik yechimlari kutilgan samarani bermaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimi orqali - maktabgacha ta'lim darajasidan to' mutaxassislarni tayyorlashgacha - suvdan oqilona foydalanishni har bir kishining kundalik odatiga, umumiy madaniy kodimizga aylantirishga intilishimiz lozim.

Biz asosiy qismi fermerlar va sanoatchilarni suvni tejovchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga amaliy jihatdan o'rgatadigan "Kelajak

suvi" mintaqaviy dasturini ishga tushirishni taklif etamiz.

Shuni ta'kidlamoqchiman: ushbu ustuvor yo'nalishlarning barchasini hayotga tatbiq etish uchun xalqaro sheriklar, moliya institutlari va ekspert-tahliliy tuzilmalar bilan faol hamkorlik qilishga tayyormiz.

Afg'oniston bilan konstruktiv hamkorlikni mustahkamlash, uni iqlim, ekologiya, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikka jalb etish muhimligiga alohida e'tibor qaratmoqchiman.

Bugungi kunda Afg'onistonda qirg'oqlarni mustahkamlash va melioratsiya ishlarini olib borish uchun xalqaro donorlarning moliyaviy mablag'larini jalb etish dolzarbdir.

Istiqbolda Orol havzasidagi barcha mamlakatlar, shu jumladan, Afg'onistonning huquq va majburiyatlarini hisobga olgan holda suv resurslarini taqsimlash bo'yicha mintaqaviy shartnomaviy-huquqiy bazani shakllantirish zarur.

Hurmatli hamkasblar!

Jamg'armaga raislik estafetasini qabul qilar ekanmiz, mintaqamiz uchun alohida dolzarblik kasb etayotgan suv-energetika va ekologik kun tartibini amalga oshirish borasidagi ishlarni Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan birgalikda faollashtirishimiz lozimligini ta'kidlamoqchiman.

Shu munosabat bilan 2026 - 2036-yillarni "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi" deb e'lon qilish va mintaqa mamlakatlarida Suv haftaliklarini mintazam o'tkazib borishga qaratilgan tashabbuslarimizni amalga oshirishda ko'lab-quvvatlashingizga umid qilaman.

Barchangizni joriy yilning sentabr oyi oxirida Samarqandda bo'lib o'tadigan Suvni tejash bo'yicha Butunjahon forumida qutlashdan mamnun bo'laman. E'tiboringiz uchun rahmat.

IQLIM O'ZGARISHLARIGA QARSHI KURASH YO'LDAGI HAMJIHATLIK

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

- Global isish sur'atlarining tezlashishi davom etmoqda, Markaziy Osiyo mintaqasida esa harorat ikki barobar tezroq ko'tarilmoqda. Mintaqa muzliklarining qariyb uchdan bir qismi yo'qoldi, yo'ng'archilik tartibining beqarorligi kuzatilmoqda, suv resurslari tanqisligi ortib bormoqda. Yer maydonlarining 80 million gektari allaqachon degradatsiyaga uchradi, - dedi davlatimiz rahbari.

Global ekologik birdamlik zaiflashayotganidan chuqur xavotir bildirildi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyalashtirish, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan o'z vaqtida va adolatli foydalanish imkoniyati bilan ta'minlanishi muhimligi ta'kidlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini mintaqaviy hamkorlikning eng muhim ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarishga muvaffaq bo'lgani mamnuvniyat bilan qayd etildi.

Buni "yashil" kun tartibini ilgari surish, iqlim o'zgarishiga moslashish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bir qator muhim, strategik ahamiyatga ega mintaqaviy dasturlarning qabul qilingani ham tasdiqlamoqda.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan tizimli chora-tadbirlarga alohida to'xtalib o'tdi.

- "Yashil makon" loyihasi doirasida qariyb 1 milliard tup daraxt va buta ekildi. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ortiq maydonda o'rmonzorlar barpo etilib, yangi "yashil belbog'"lar yaratilmoqda. Bizning tashabbusimiz bilan BMT Bosh Assambleyasining "O'rmonlashtirish va o'rmonlarni tiklash bo'yicha harakatlar o'n yilligi" rezolyutsiyasi qabul qilindi, - dedi O'zbekiston yetakchisi.

Bundan tashqari, suvni tejash borasidagi keng ko'lami sa'y-harakatlar natijasida yiliga 10 milliard kubometr suv iqtisod qilinoqda. Mamlakatimizning generatsiya quvvatlarida "yashil" energetika ulushi allaqachon 30 foizga yetdi, 2030-yilning oxiriga borib esa 50 foizdan oshadi.

Parij bitimi bo'yicha zararli chiqindilarni 35 foizga kamaytirish majburiyati muddatidan oldin bajarilib, 2035-yilgacha ularni ikki barobar qisqartirish bo'yicha yangi marra belgilandi.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarishga oid loyihalar faol amalga oshirilmoqda. Joriy yilda chiqindilarni yoqish bo'yicha ikkita yangi zavod ishga tushirildi, yana 9 tasi esa kelgusi ikki yil davomida faoliyatini boshlaydi. Ularning ishga tushirilishi har yili 5,5 million tonna chiqindini utilitatsiya qilish, 2,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, chiqindilar hajmini 1 million tonnadan ortiqqa qisqartirish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Markaziy Osiyodagi iqlim va ekologiya muammolarini hal qilish bo'yicha bir qator aniq tashabbuslarni ilgari surdi.

Atmosfera havosining sifati yomonlashayotgan sharoitda "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini ta'sis etish taklifi bildirildi. Konsorsium sanoatni modernizatsiya qilib, havoga chiqarilayotgan zararli moddalar uchun tozalash tizimlarini joriy etadigan "yashil" moliyalashtirishning qo'shma operatoriga aylanishi mumkin.

Prezidentimiz Toshkentdagi Yashil universitet huzurida faoliyat yuritayotgan Cho'llanishga qarshi kurashish, qurg'oqchilikning oldini olish hamda qum va chang bo'ronlari haqida barvaqt ogohlantirish markaziga mintaqaviy maqom berish muhimligini ta'kidladi. Markaz bazasida ilmiy salohiyatni birlashtirish yerlarining degradatsiyasi hamda tuz va changli bo'zonlarni monitoring qilish bo'yicha kuchli tizimni yaratish imkonini berishi ta'kidlandi.

Texnologik o'tish jarayonlarini tezlashtirish uchun imtiyozli bo'xona tartiblarini va ekomahsulotlar uchun sertifikatlarni o'zaro tan olishni nazarda tutuvchi "Markaziy Osiyo yashil savdo yo'lagi"ni shakllantirish tashabbusi ilgari surildi.

Markaziy Osiyo iqlim loyihalarining yagona investitsiya portfelini yaratish dolzarb masala ekanligi qayd etildi. Bu mintaqani rivojlantirish bo'yicha yaxlit strategiya bilan harakat qilish imkonini yaratib, sheriklarda uni amalga oshirishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Markaziy Osiyo atrof-muhitidagi o'zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratilishi mintaqadagi cho'llanish, tuproq degradatsiyasi jarayonlari va suv resurslari holati dinamikasini yaqqol ifoda etadigan fundamental ilmiy-tahliliy bazaga aylanishi mumkin.

Biologik xilmaxillikni saqlash uchun "Markaziy Osiyo Qizil kitobi"ni ishlab chiqish, bu jarayonda Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining Toshkentdagi mintaqaviy ofisini muvofiqlashtiruvchi sifatida belgilash taklif qilindi.

Yoshlar orasida iqlim kun tartibi va ekologik madaniyatni ilgari surish uchun 2027-yilda O'zbekistonda Butunjahon yoshlar iqlim forumini o'tkazishga tayyorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida tadbir ishtirokchilarini shu yil Samarqandda bo'lib o'tadigan Global ekologik fondning sakkizinchi assambleyasi va Suvni tejash bo'yicha Butunjahon forumida ishtirok etishga taklif etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida o'tayotgan Mintaqaviy ekologik sammit doirasida BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi ijrochi direktori Inger Andersen bilan muloqot qildi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va iqlim muammolariga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

O'zaro hamkorlik, shu jumladan, milliy ekologik ma'ruzalarni tayyorlash, atrof-muhit monitoringi tizimini takomillashtirish va institutsional salohiyatni mustahkamlash

masalalarida izchil rivojlanib borayotgani qayd etildi.

Ijrochi direktor O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Yashil makon", "Biomeros", "Toza havu", "Chiqindisiz hudud" va "Eko madaniyat" kabi milliy loyihalarni yaqqol baholadi. Ularning ekologik barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush sifati oshirishdagi ahamiyati qayd etildi.

Inger Andersen, shuningdek, O'zbekiston Prezidentining bugungi sammitda ilgari surilgan tashabbuslarini ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy sheriklikni kengaytirishga tayyorligini bildirdi.

So'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.

Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o'tgan tadbirda Qirg'iziston Prezidenti Sadir Jarayov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va OQXJning Ijroiya qo'mitasi raisi Asxat Orazbay ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Qozog'istonning 2023 - 2026-yillarda OQXJga raisligining natijalari sarhisob qilinib, Orol dengizi havzasida ekologiya, suv resurslarini boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilashning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi uyush bo'yicha tuzilma sifatida faoliyat yuritib kelayotganini, Markaziy Osiyoda suv taqchilligining kuchayishiga sabab bo'layotgan iqlim o'zgarishlari va suv iste'moli ko'payib borayotgan sharoitda uning roli va ahamiyati yanada ortayotganini ta'kidladi.

- Ekspertlarning baholariga ko'ra, 2040-yilga borib Orol dengizi havzasida suv resurslari taqchilligi deyarli ikki barobar - yiliga 20 milliard kubometr gacha oshishi mumkin. Bu ichimlik suvi ta'minoti, ekologiya, agrar sektor, energetika va ijtimoiy barqarorlik uchun qo'shimcha xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shunday bir paytda mintaqa mamlakatlari suv resurslaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha eng quyi o'rinlarni egallab turibdi. Qishloq xo'jaligida bir dollar miqdoridagi qo'shilgan qiymatni yaratish uchun mamlakatlarimiz deyarli uch kubometr suv sarf etmoqda, dunyoda esa bu ko'rsatkich o'rtacha ikki barobar kam.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga batafsil to'xtalib o'tdi. Qisqa muddatda O'zbekistondagi barcha sug'oriladigan yerlarning 60 foizida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi, irrigatsiya tarmoqlarini betonlash 40 foizga yetkazildi. Nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish hisobiga suv xo'jaligida energiya iste'moli qariyb 30 foizga qisqartirildi.

Olti yuz mingdan ortiq suvdan foydalanuvchilar va 4 million gektardan

ziyod sug'oriladigan yerlarni qamrab oladigan yagona raqamli ma'lumotlar bazasi shakllantirilmogda.

Mazkur loyihalar amalga oshirilishi tufayli har yili 10 milliard kubometrdan ortiq suv resurslarini tejash ta'minlanmoqda. 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkich 15 milliard kubometri tashkil etadi.

Ushbu chora-tadbirlarning barchasi kompleks va izchil xarakterga ega bo'lib, o'tgan yili qabul qilingan Suv kodeksida o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimiz yetakchisi O'zbekiston jamg'armasi mintaqaviy integratsiyani muhim drayverlardan biriga aylantirishga erishishni maqsad qilganini bildirdi. Shu munosabat bilan O'zbekistonning kelgusi yildan boshlanadigan OQXJga raisligi davridagi ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib o'tdi.

Avvalo, jamg'armaning faoliyatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, uning tuzilmasi hamda shartnomaviy-huquqiy bazasini takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Jamg'arma organlarining vakolatlarini kengaytirish, ularning maqomi va mas'uliyatini oshirish bo'yicha takliflar qo'llab-quvvatlandi.

Qirg'izistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatidagi to'laqonli ishtiroki qayta tiklanishiga umid bildirildi. Bu jamg'armaning yanada mutanosib va uzoq muddatli qarorlar qabul qilishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston yetakchisi OQXJ kun tartibini Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari qarorlari bilan uyg'unlashtirishga chaqirdi. Maslahat uchrashuvlari davomida oliy darajada kelishilgan barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari jamg'armaning tarmoq mexanizmlari orqali ham amaliyotga tatbiq etilishi mumkinligi ta'kidlandi.

Jamg'arma dastur va loyihalari samaradorligini oshirish muhimligi qayd etildi. Shu munosabat bilan Orol dengizi havzasi bo'yicha to'rtinchi dastur ijrosi monitoringiga samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini kiritish taklif qilindi. Bu ijobiy o'zgarishlarni kuzatish, muammoli jihatlarni aniqlash hamda xalqaro hamkorlardan qo'shimcha mablag'lar va texnik ko'mak jalb etishga yordam beradi.

Ustuvor dasturlar uchun mavjud ta'sirchan moliyalashtirish vositalaridan foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Xususan, BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sherklik trust fondning mandati va geografik qamrovini butun Orol dengizi havzasiga kengaytirish imkoniyatini ko'rib chiqish taklifi bildirildi.

- Bu barcha davlatlarimiz hududida hayotiy muhim ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun maqsadli investitsiyalarni yo'naltirish imkonini beradi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

OQXJ va boshqa mintaqaviy tuzilmalar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish masalasining dolzarbligiga urg'u berildi. Jamg'arma suv-energetika masalalari, muzliklar va tog' ekotizimlarini saqlash, iqlim o'zgarishiga moslashish, cho'llanishga qarshi



Konstruktiv xarakterga ega hamkorlik

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva Sloveniya Respublikasi Oliy Majlisi sudi raisi Yana Axchini bilan uchrashdi.

Unda ikki tomonlama, jumladan, davlat moliyaviy nazorati sohasidagi hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Sloveniya Audit sudi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, davlat auditi bo'yicha ilg'or tajriba va amaliyotlarni almashish muhimligi ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Sloveniya Respublikasi Milliy kengashi o'rtasidagi hamkorlik tizimi va konstruktiv xarakterga ega ekani ta'kidlandi. Parlament delegatsiyalari tashriflari faollashtirish, dasturlar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini kuchaytirish hamda bu borada o'zaro tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida tomonlar barcha yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash va rivojlantirishdan o'zaro manfaatdorligini bildirdi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

Barqaror kelajak poydevori

Ekologik barqarorlikni ta'minlash dunyo davlatlari oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimizning Mintaqaviy ekologik sammitdagi nutqi aynan shu nuqtayi nazarida nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo uchun strategik ahamiyatga ega dasturiy hujjat sifatida namoyon bo'ldi. Zero, unda ta'kidlanganidek, bugungi kunda ekologik muammolarni global iqlim o'zgarishlaridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Munosabat

Darhaqiqat, global isish jarayonlari jadallashib borayotgan bir paytda Markaziy Osiyo mintaqasida haroratning ikki barobar tez o'sishi, muzliklar hajmining qisqarishi, suv resurslari tanqisligining ortishi kabi holatlar mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Bu esa masalaga faqat milliy emas, balki mintaqaviy va global yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shu ma'noda, "Barqaror kelajak uchun umumiy nioh" g'oyasining ilgari surilishi zamon talabiga hamohang, chuqur o'ylangan tashabbusdir. Chunki ekologik xavf-xatarlar chegaraga bilmaydi. Ularga qarshi kurashish esa faqat hamjihatlik va o'zaro ishonch asosida amalga oshirilishi mumkin.

Global ekologik birdamlikning zaiflashayotgan jahon hamjamiyati uchun jiddiy signaldir. Ayniqsa, iqlim o'zgarishlariga eng kam hissa qo'shayotgan rivojlanayotgan davlatlarning uning oqibatlaridan ko'proq jabr ko'rayotgani adolat tamoyillariga zid. Shu nuqtayi nazaridan, moliyalashtirish, texnologiyalar va innovatsiyalarga teng va to'siqsiz kirish imkoniyatini ta'minlash xalqaro hamkorlikning asosiy mezon bo'lishi lozim.

Markaziy Osiyo davlatlarining so'nggi yillarda ekologik diplomatiya borasidagi faolligi e'tiborga molik. "Yashil kun tartibi", iqlimga moslashish strategiyalari va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha dasturlar – bugungi kunda mintaqada

shakllanayotgan yangi ekologik siyosatning amaliy ifodasi. Bu esa mintaqa davlatlarining umumiy maqsad yo'lida birlashib harakat qilayotganini ko'rsatadi.

X u s u s a n , O'zbekistonning ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida amalga oshirayotgan ishlari tahsiga sazovor. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida millionlab daraxt ko'chatlari ekilishi, Orolbo'yida keng ko'lami o'rmonlashtirish ishlari, suv resurslarini tejash bo'yicha erishilayotgan natijalar – bularning barchasi mamlakatimizda ekologik siyosat izchil va tizimli amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining ortib borayotgani, chiqindilarni qayta ishlash va ulardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilayotgani iqtisodiy o'sish bilan ekologik muvozanatni uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim qadamlardir. Bu esa "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi aniq natijalar hisoblanadi.

Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar esa o'zining aniqliqi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Jumladan, "Markaziy Osiyoning toza havosi" konsorsiumiga asos solish taklifi aholi salomatligini muhofaza qilish bilan

birga sanoatni modernizatsiyalashga ham xizmat qiladi. Bu tashabbus kelgusida "yashil" texnologiyalarni keng joriy etish uchun muhim platforma bo'lishi mumkin.

Shuningdek, cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish markaziga mintaqaviy maqom berish, "yashil savdo yo'lagi"ni yaratish, yagona investitsiya portfelini shakllantirish kabi takliflar – iqtisodiy va ekologik manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik yondashuv.

Ekologik atlas va "Markaziy Osiyo Qizil kitobi"ni yaratish tashabbuslari esa ilmiy-tahliliy asosni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu orqali mintaqadagi ekologik o'zgarishlarni chuqur o'rganish va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

Yoshlarni ekologik jarayonlarga jalb etish masalasi alohida e'tibor qaratilishi ham juda muhim. Zero, kelajak aynan yoshlar qo'lida. Ularning ekologik madaniyatini oshirish – barqaror rivojlanishning asosiy kafolatlaridan biri.

Ekologik tahdidlar insoniyat oldidagi eng katta sinovlardan biriga aylanmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda Markaziy Osiyo davlatlarining birlashib harakat qilishi nafaqat zarurat, balki kelajak oldidagi mas'uliyatdir. Ko'p asrlik yaxshi qo'shniqlik an'analari, o'zaro ishonch va qat'iy siyosiy iroda asosida ushbu maqsadlarga, albatta, erishamiz. Markaziy Osiyo esa nafaqat geografik, balki ekologik barqarorlik hamda "yashil" taraqqiyot namunasiga aylanadi.

Abdulkhamid ESHMURATOV,
Oliy Majlis Senatning Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi.



Abdulkhamid Eshmuratov

QONUN HUJJATLARI TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi majlisida norma ijodkorligi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Senat qo'mitasida

Muhokama jarayonida qayd etilganidek, Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan stipendiatlar uchun sarflangan o'qitish xarajatlarini undirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlarini huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatlarini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelgan.

Mazkur qonun bilan kiritilayotgan o'zgartirishlarga ko'ra, "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiat uchun sarflangan o'qitish xarajatlarini

undirish yuzasidan sudlarga kiritgan da'volari bo'yicha davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi. Vazirliklar va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini huquqiy ekspertiza hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatlarini qisqartirilishi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, yarimtayyor zargarlik buyumlarini realizatsiya qilish bilan bog'liq jarayonlarni takomillashtirish, eksportga doir qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish lozimligi xususida fikr bildirildi.

Muhokama chog'ida huquqni qo'llash amaliyotiga

ta'sir etmaydigan yoki o'z ahamiyatini yo'qotgan normalarni bekor qilish orqali qonunchilik bazasini ixchamlashtirish talab etilayotgani aytiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topilayotadi.

Qo'mita a'zolari ushbu qonun "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan sarflangan mablag'larni o'z vaqtida byudjetga qaytarish mexanizmlarini, shuningdek, norma ijodkorligi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga, mahalliy zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo'llab-quvvatlashga, bunday mahsulotlarning eksport hajmini oshirishga va qonunchilik bazasini ixchamlashtirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Muhokama yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Onlayn muloqot

O'zaro manfaatli aloqalar kengayadi

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orzigul Qozixonova Birlashgan Arab Amirliklarining Raqobatbardoshlik va statistika federal markazi direktori Hanan Ahliy bilan uchrashdi.

Onlayn muloqot davomida gender statistikasi tizimini takomillashtirish, shuningdek, tahlil yo'nalishlarida ilg'or tajriba almashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar gender tahlil tizimini kuchaytirish maqsadida raqamli statistika va "big data" texnologiyalarini joriy etish, BAA ekspertlari ishtirokida trening va seminarlar tashkil qilish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalari ishtirokida qo'shma tadqiqotlar olib borish kabi ustuvor yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator takliflarni ilgari surdi.

Uchrashuv yakunida har ikki tomon ham gender statistikasini takomillashtirish, ilg'or tajribalar asosida o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga tayyor ekanini bildirdi.

"Xalq so'zi".

"Xalq so'zi".

YOSHLAR MASALALARI E'TIBORDA

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi Yashil parlamenti a'zolari bilan uchrashuv tashkil qildi.

Muhokama

Unda Yoshlar parlamentining xalqaro hamkorlik yo'nalishidagi faoliyati, amalga oshirilayotgan loyihalar va istiqboldagi rejalar muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, bugungi kunda Yoshlar parlamenti MDH davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirib,

tajriba almashyapti, ta'lim dasturlari va qo'shma loyihalarni amalga oshirmoqda. Shu jihatdan, xorijdagi vatanodosh yoshlar bilan muloqotni kuchaytirish, taklif va tashabbuslarini inobatga olib, ularni qonunchilik jarayonlariga jalb etish bo'yicha ish olib borilayotgani e'tiborga molik.

Uchrashuv yakunida senatorlar yosh avlodning xalqaro hamkorlikdagi ishtirokini yanada kengaytirish, yoshlar diplomatiyasini rivojlantirish, ularning qonunchilik jarayonidagi faolligini oshirish yuzasidan tavsiyalar bildirishdi.

"Xalq so'zi".

"Xalq so'zi".

Kriminogen vaziyatni yaxshilash va korruptsiyaning oldini olish – asosiy vazifa

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Qo'shma yig'ilish

Unda senatorlar, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengash doimiy komissiyalari a'zolari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, hududiy davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari qatnashdi.

Majlisda Yashnobod tumani huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi, shuningdek, jamoat xavfsizligi hamda korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Qayd etilganidek, 2025-yil 5-mart kuni mamlakatimiz Prezidenti ishtirokida o'tkazilgan Korruptsiyaga

qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash hamda joriy yil 27-yanvarda Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha bo'lib o'tgan yig'ilishda huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika, maishiy korruptsiya hamda "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish borasida ustuvor vazifalar belgilangan edi.

Shuningdek, 2025-yil 26-dekabrda Prezidentimizning Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham ushbu masalaga alohida urg'u berilib, korruptsiya davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan jiddiy tahdid ekanligi,

2026-yilda bu illatga qarshi kurashish bo'yicha "favqulodda holat" e'lon qilinishi ta'kidlandi.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib qo'shma majlisda tumanda jinoyatchilik hamda korruptsiyaning oldini olish, bozorlarni raqamlashtirish, qurilish sohasida korruptsiyaga qarshi kurashish, "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish, huquqiy ong va madaniyatni oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, Yashnobod tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, tuman prokurori hamda qator tashkilotlar rahbarlarining axborotlari eshitildi.

Amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birgalikda yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham ta'kidlanib, davlat organlari va tashkilotlarining kelgusi ishlari yuzasidan tegishli vazifa hamda tavsiyalar berildi.

Muhokamalar yakunida tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Aks sado

ATROF-MUHIT MUHOFAZASIGA MUSHTARAK YONDASHUVLAR

Markaziy Osiyoning ekologik kelajagi bugungi kunda mintaqa davlatlari uchun eng dolzarb va strategik masalalardan biri bo'lib turibdi. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining Qozog'iston Respublikasi Prezidenti taklifiga binoan Ostona shahriga amaliy tashrii muhim siyosiy voqeik bo'ldi, deyish mumkin. Shuningdek, Prezidentimizning Mintaqaviy ekologik sammitdagi ishtiroki mintaqaviy ekologik hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishda dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining fikr-mulohazalari shu haqda.

Xayrullo G'AFFOROV,
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi raisi:

– O'zbekiston va Qozog'iston tarixiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan bir-biriga uzviy bog'langan qo'shni mamlakatlardir. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik bugungi

kunda strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga ko'tarilib, butun mintaqa rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, global masalalarga birgalikda yechim izlanayotgani e'tiborga molik. Mintaqaviy ekologik sammit bunga yaqqol misol.

Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida global iqlim o'zgarishlari va mintaqaviy ekologik muammolar o'zaro chambarchas bog'liq ekanini alohida ta'kidladi. Muzliklar erishi, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi va cho'llanish jarayonlari Markaziy Osiyo uchun jiddiy xavf qo'lib qolmoqda. Shu bois bu masalalarni alohida e'tiborga olish, ularning markazida Markaziy Osiyoni ekologik jihatdan barqaror va yashil makonga aylantirish vazifasi turadi.

Jumladan, "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini tashkil etish, Cho'llanishga qarshi kurash markaziga mintaqaviy maqom berish, "yashil savdo yo'lagi"ni shakllantirish hamda yagona investitsiya platformasini yaratish kabi tashabbuslar ekologik siyosatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Biologik xilmaxillikni saqlash, qum va chang bo'ronlariga qarshi kurash, suv resurslarini samarali boshqarish hamda ekologik ta'limga rivojlantirishga qaratilgan takliflar kelajak avlod manfaatlariga bevosita aloqadorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar ham ushbu siyosatning amaliy ifodasidir. Orol dengizi hududida millionlab gektar maydonda yashil qoplamalar barpo etilishi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi

iqtimoiyotni amaliyotga keng tatbiq etish imkonini beradi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, ekologik masalalar, atrof-muhit muhofazasi parlamentning doimiy e'tiborida bo'lib, ushbu yo'nalishda keyingi yillarda bir qator muhim qonunlar qabul qilinadi. Albatta, bu boradagi ishlar izchil davom etadi.

Hilola YUSUPOVA,
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi raisi:

– Prezidentimiz tomonidan sammitda ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar amaliy mazmuni, tizimli yondashuvi hamda uzoq muddatli maqsadlari bilan alohida ahamiyatga ega. Ularning markazida Markaziy Osiyoni ekologik jihatdan barqaror va yashil makonga aylantirish vazifasi turadi.

Jumladan, "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini tashkil etish, Cho'llanishga qarshi kurash markaziga mintaqaviy maqom berish, "yashil savdo yo'lagi"ni shakllantirish hamda yagona investitsiya platformasini yaratish kabi tashabbuslar ekologik siyosatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Biologik xilmaxillikni saqlash, qum va chang bo'ronlariga qarshi kurash, suv resurslarini samarali boshqarish hamda ekologik ta'limga rivojlantirishga qaratilgan takliflar kelajak avlod manfaatlariga bevosita aloqadorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar ham ushbu siyosatning amaliy ifodasidir. Orol dengizi hududida millionlab gektar maydonda yashil qoplamalar barpo etilishi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi

doirasida ulkan miqdorda daraxt ko'chatlari ekilishi, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va "yashil" energetika ulushini oshirish bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda.

Ostona sammitida qabul qilingan qarorlar va hujjatlar, jumladan, mintaqaviy ekologik hamkorlik bo'yicha deklaratsiya hamda yangi harakatlar dasturi Markaziy Osiyoning ekologik siyosatini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Javlonbek ABDULLAYEV,
Qonunchilik palatasi deputati,
Ekologik partiya fraksiyasi a'zosi:

– Prezidentimizning Markaziy Osiyo davlatlarini yagona ekologik kun tartibi asosida hamkorlikka chorlagan takliflari mintaqa uchun dolzarb va hayotiy masalalarni qamragan. Bu bejiz emas. Chunki ekologik masalalar bugun nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki aholi salomatligi, iqtisodiy barqarorlik va kelajak avlod manfaatlarini bilan ham chambarchas bog'liq. Shu bois ekologik tashabbuslarni qonunchilik asosida qo'llab-quvvatlash, "yashil" iqtisodiyotga oid mexanizmlarni takomillashtirish va ekologik madaniyatni oshirish parlament oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan yagona investitsiya portfeli, mintaqaviy ekologik atlas va "Markaziy Osiyo Qizil kitobi" kabi tashabbuslar ilmiy yondashuv va amaliy hamkorlikni uyg'unlashtiradi. Bu esa ekologik xavflarni kamaytirish bilan birga, mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, yoshlarni ekologik jarayonlarga faol jalb etish va kelgusida O'zbekistonda Butunjahon yoshlar iqlim forumini o'tkazish tashabbusi ekologik ong va mas'uliyatni kuchaytirishda muhim qadam bo'ladi. Bu nafaqat bugungi, balki kelajak avlod manfaatlarini uchun ham muhim investitsiyadir.

Ushbu tashabbuslar Markaziy Osiyo davlatlarining harakatlarini yagona, qudrati kuchga birlashtiradi. Biz iqlim muammolarini shunchaki to'siq deb emas, balki zamonaviy texnologiyalar, yangi ish o'rinlari va kuchli iqtisodiy modelga o'tish uchun "o'sish nuqtasi" deb qabul qilishimiz shart.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA OID TAKLIFLAR ILGARI SURILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi tomonidan Yangi O'zbekistonning sud islohotlari: ma'muriy sud adolati va barqaror davlat boshqaruvining kafolati masalalariga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

muvozanatni shakllantirishda tarixiy qadam bo'ldi.

Davra suhbatida parlament va Oliy sud o'rtasidagi munosabatlar chinakam konstruktiv hamkorlik darajasiga ko'tarilgan alohida qayd etildi. Xususan, Oliy sud tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Qonunchilik palatasi 2024-yilda 8 ta, 2025-yilda 7 ta, 2026-yilning o'tgan davrida esa 3 ta qonun loyihasi kiritilib, qabul qilindi. Ayni paytda Qonunchilik palatasida muhokama etilayotgan "Sudyalarning hamjamiyati organlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ham alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi.

Tadbir davomida deputatlar va soha mutaxassislari tomonidan sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, ma'muriy odil sudlovni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator aniq takliflar ilgari surildi.

Jumladan, ma'muriy sudga ariza qabul qilingan vaqtdan boshlab, yakuniy qaror chiqquniga qadar shikoyatda

aytilayotgan davlat organi qarorining ijrosini avtomatik ravishda to'xtatib turishni nazarda tutuvchi normani kiritish, sudyalarning huquqiy, ijtimoiy va moddiy kafolatlarini mustahkamlash hamda ularning daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan "Sudyalarning maqomi to'g'risida"gi yagona qonunni ishlab chiqishni jadallashtirish lozimligi qayd etildi.

Shuningdek, sudyalarning ish yuklamasini optimallashtirish va korruptsiya xavflarini qisqartirish maqsadida sud tizimiga, jumladan, qarorlar loyihalarni tayyorlash jarayoniga sun'iy intellekt elementlarini yordamchi vosita sifatida joriy qilishga doir qonun loyihalarni ishlab chiqish taklif etildi.

Muhokamada sudning faol ishtiroki prinsipini kengaytirish, ko'p sonli fuqarolar huquqlarini bir vaqtda himoya qilish imkonini beruvchi jamoaviy da'vo institutini to'laqonli joriy etish masalalari ham atroficha ko'rib chiqildi.

Tadbir yakunida bildirilgan takliflar asosida ma'muriy sudlar faoliyati samaradorligini yanada oshirish, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

«MENING BOG'IM» LOYIHASI:

MUHIM TASHABBUS VA IMKONIYAT

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida davlatimiz rahbarining "Mening bog'im" loyihalarini shakllantirish va amalga oshirishda jamoatchilik hamda xalq vakillari ishtirokini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida seminar tashkil etildi.

Ta'kidlanganidek, "Mening bog'im" loyihalarini shakllantirish va amalga oshirishda deputatlarining ishtiroki saylov okruglarida ekologik holatni yaxshilash, aholi uchun qulay atrof-muhitni yaratish, madaniy hordiq va dam olish maskanlarini tashkil etish uchun yangi imkoniyatlar bermoqda.

Mazkur loyiha doirasida mamlakatda yashil hududlarni ko'paytirish va aholi uchun yangi bog'lar yaratish maqsad qilingan. Xususan, endilikda "Ochiq byudjet" axborot portali orqali g'olib bo'lmagan, ammo aholi manfaatlariga mos va ekologik jihatdan dolzarb bo'lgan loyihalarni deputatlar tomonidan g'olib, deb

muvozanatni shakllantirishda tarixiy qadam bo'ldi. Davra suhbatida parlament va Oliy sud o'rtasidagi munosabatlar chinakam konstruktiv hamkorlik darajasiga ko'tarilgan alohida qayd etildi. Xususan, Oliy sud tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Qonunchilik palatasi 2024-yilda 8 ta, 2025-yilda 7 ta, 2026-yilning o'tgan davrida esa 3 ta qonun loyihasi kiritilib, qabul qilindi. Ayni paytda Qonunchilik palatasida muhokama etilayotgan "Sudyalarning hamjamiyati organlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ham alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi.

Tadbir davomida deputatlar va soha mutaxassislari tomonidan sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, ma'muriy odil sudlovni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator aniq takliflar ilgari surildi.

Jumladan, ma'muriy sudga ariza qabul qilingan vaqtdan boshlab, yakuniy qaror chiqquniga qadar shikoyatda

shahar va qishloq hududlarida ekologik muhitni yaxshilash, yashil hududlarni ko'paytirish hamda jamoatchilikning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga ulkan hissa qo'shadi, – deydi Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi a'zosi Oybek Rahimov. – Ushbu seminar deputatlarining bu boradagi mas'uliyati va rolini yanada kuchaytirishga turki beradi.

Seminarda Prezidentimiz farmonida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING MUSTAHKAM ZAMINI

Kecha Ostona shahrida bo'lib o'tgan Mintaqaviy ekologik sammit hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishi Markaziy Osiyoning yaqin o'n yillikdagi taqdirini belgilovchi tarixiy voqe'lik bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Ta'kidlash joizki, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi o'tgan davr mobaynida shunchaki texnik tuzilma emas, balki dolzarb masala – suv resurslarini boshqarish bo'yicha

o'zaro muhokamalar olib borish yo'lidagi yagona va noyob platforma ekanini isbotladi. Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtiruvchi komissiya hamda "Amudaryo" va "Sirdaryo" havza tashkilotlari orqali yo'lga qo'yilgan tizimli ishlar mintaqada suv nazoratining oldini olish hamda resurslarni adolatli taqsimlashda asosiy mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq global iqlim o'zgarishlari ushbu tizimni tubdan yangilashni taqozo etayotir.

uchun qator tamoyil va yondashuvlarni qo'llash muhim hisoblanadi. Masalan, suv resurslarini boshqarishda uzoq muddatli ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar uyg'unligini ta'minlash zarur. Qarorlar nafaqat joriy ehtiyojlarni, balki kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olishi kerak. Resurslardan foydalanishda teng imkoniyatlar yaratish orqali ijtimoiy muvozanatni saqlash juda muhim ahamiyatga ega. Suv resurslari boshqaruvi bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayoniga fuqarolarni faol jalb etish va ularni ma'lumot bilan ta'minlash orqali resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish ham ayni zarurat.

Sammit doirasidagi tadbirlar davomida Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti yo'lida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning dolzarb ekologik, iqlim hamda suv muammolarini hal etish masalalari muhokama qilindi. Aytish kerakki, agar mintaqada davlatlari bugun suv va ekologiya masalasida qat'iy tartibli qararlarga kelmasa, ertaga iqtisodiy zarar hamda ijtimoiy inqirozlarning oldini olish imkonsiz bo'lib qoladi. Shu sababli ushbu sammit – kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatini his qilgan holda tashlangan eng muhim qadam, desak, ayni haqiqat. Qolaversa, Orolni qutqarish va suv xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy birlikning eng oliy sinovidir. Tanqislik kuchayayotganiga qaramay Markaziy Osiyo davlatlari vaziyatni o'zgartirishga qattiq kirishgan. Yetakchilar muloqotlarda suvdan samarali foydalanish va hamkorlikni rivojlantirishga alohida urg'u berdi.

Prezidentimiz Mintaqaviy ekologik sammitdagi nutqida Markaziy Osiyo davlatlarini iqlim va ekologiya muammolari qarshisida, xavf-xatarlarni yangi "o'sish nuqtalari"ga aylantirgan holda hamkorlikda harakat qilishga chaqirib, qator aniq takliflarni ilgari surdi. Shulardan biri – atmosfera havosining sifati yomonlashayotgan sharoitda "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini ta'sis etish masalasi. Bu mintaqada aholisi salomatligini himoya qilishda muhim qadam bo'ladi. Konsorsium sanoatni modernizatsiya qilib, havoga chiqarilayotgan zararli moddalar uchun tozalash tizimlarini joriy etadigan "yashil" moliyalashtirishning qo'shma operatoriga aylinishi mumkin.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo atrof-muhitidagi o'zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratish taklifi ham taqdim etildiki, bu mintaqamiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur atlas mintaqadagi cho'llanish, tuproq degradatsiyasi jarayonlari va suv resurslari holati dinamikasini yaqqol ifoda etadigan fundamental ilmiy-tahliliy bazaga aylanadi. Biologik xilmaxillikni saqlash uchun "Markaziy Osiyo Qizil kitobi"ni birgalikda ishlab chiqish, 2027-yilda O'zbekistonda Butunjahon yoshlar iqlim forumini o'tkazish kabi hayotiy tashabbuslar natijalari butun mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Bahodir MIRZAYEV, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor.

Nuqtai nazar

Ehtiyoj uch barobar oshadi

Tahillarga ko'ra, 2040-yilga borib mintaqaning ayrim hududlarida suvga ehtiyoj uch barobar oshadi. BMT ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zida suvdan samarasiz foydalanish tufayli mintaqada yiliga 2 mlrd. dollar mablag' yo'qotmoqda. Agar keskin choralar ko'rilmasa, kelajakda iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin.

Shiddatli aholi o'sishi, urbanizatsiya va sanoatlashuv suv resurslariga bo'lgan yuklamani ham oshiryapti. Muzliklarning erishi va tabiiy ofatlarning ko'payishi bu muammoni nafaqat iqtisodiy, balki milliy xavfsizlik darajasiga olib chiqdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, mintaqaning eng yirik daryolari havzalari sezilarli darajada qisqargan. Amudaryoning suv miqdori bu yil uzoq muddatli o'rtacha ko'rsatkichning atigi 66,8 foizini tashkil qiladi. Bir yil oldin bu ko'rsatkich 101,8 foizni tashkil etgan edi, ya'ni daryo o'z oqimining uchdan bir qismini yo'qotdi. Natijada suv omborlaridagi suv sathi ham pasaydi. O'zbekiston hamda Turkmaniston uchun muhim bo'lgan Tuyamo'yin suv omborida to'plangan suv o'tgan yildagiga nisbatan 600 mln. kubometr kam.

Suv tanqisligi tuproq unumdorligini tiklash uchun zarur bo'lgan "eritib sug'orish" vaqtini kechiktirishga majbur qildi. Bu yil u odatdagidan ikki oy kechikib, 10-fevralda boshlandi. O'zbekistonning qurg'oqchil hududlarida sho'rlangan tuproqlarni eritib yubormasdan hosil yig'ishning iloji yo'q. Shuning uchun bu kechikish jiddiy yo'qotishlarga olib keladi. Markaziy Osiyoning ikkinchi yirik daryosi – Sirdaryoda vaziyat ancha optimistik. Umumiy oqim darajasi 11,7 mln. kubometr bo'lgani holda haqiqiy oqim 10,2 mln. yoki 87 foizni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, "Norin – Sirdaryo" suv ombori kaskadida zaxiralari bir yil avvaldagiga nisbatan 2,5 mln. kubometr kam. Orol dengizi havzasiga rejalashtirilgan suv hajmining uchdan bir qisidan kamrogi yetib borgan. Bunday

sharoitda rasmiylar joriy yil yozida suv oqimi eng past ko'rsatkichlarni ko'rsatishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqda. Qozog'iston rasmiylari Sirdaryo va Talas havzalarida suv sathi uzoq muddatli me'yordan past bo'lishi kutilayotgani hamda qurg'oqchilik bo'lishini bashorat qilayotir.

Bulardan ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyoda suv tanqisligi muammosi so'nggi yillarda jiddiy tus olmoqda. Xalqaro tahlil markazi bo'lgan "New Lines Institute" hisobotiga ko'ra, so'nggi 40 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti uch baravardan ko'proqqa, yiliga 8400 dan 2500 kubometrgacha oshdi. Suv tanqisligi iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka asosiy tahdidlardan biriga aylanib boryapti.

Muammolar va yechim

Ekologik muammolar ham bir necha bor yomonlashdi. 2023-yil bahorida yirik shaharlarda keng ko'lami suv ta'minotida uzilishlar qayd etildi. Bishkek, Ostona va Olmaotada suvni o'chirish jadvali joriy etildi, bu esa katta noroziliklarga olib keldi. O'sha yozda Janubiy Qozog'istonning bir nechta tumanlarida qurg'oqchilik tufayli favqulodda holat e'lon qilindi. Bu vaziyatning o'ziga xos sabablari bor, albatta.

Birinchidan, Markaziy Osiyo aholisi o'sib bormoqda. Sobiq ittifoq davri oxirida beshta respublikada 49 mln. kishi yashagan bo'lsa, bugungi kunga kelib 80 mln. nafardan oshdi. Mintaqada o'rta har yili bir mln. kishi qo'shilmoqda, ya'ni 2050-yilga borib aholi 100 mln. kishidan oshib ketishi mumkin. Shubhasiz, bularning barchasi iste'molning oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot o'sib borayotir. Yevroosiyo taraqqiyot banki hisob-kitoblariga ko'ra, mintaqadagi mamlakatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti so'nggi 20 yil ichida yiliga o'rta 6,2 foizga o'sdi. 2025-yil oxiriga kelib o'sish 7 foizni tashkil etadi. Bu butun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan iqtisodiyotlar sur'atlaridan sezilarli darajada oshib ketishini anglatadi. Bundan tashqari, mintaqamizda katta miqdordagi suvga muhtoj bo'lgan sanoat hamda qishloq



xo'jaligi ustunlik qiladi.

Uchinchidan, suv keskinligi yuzaga kelishiga iqlim o'zgarishi ta'sir ko'rsatyapti. Meteorologlarning ta'kidlashicha, mintaqada yillik harorat global o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar tez ko'tarilmoqda. Shu bilan birga, Tojikiston qishloq xo'jaligi vaziri yirik daryolarni oziqlantiruvchi muzliklarning aksariyatini erib ketishi haqida xabar berdi. Uning so'zlariga ko'ra, so'nggi yillarda 14 000 ta muz qatlamidan 1000 tasi yo'q bo'lib ketgan.

Mutaxassislar "Markaziy Osiyo iqlim doirasi" deb atalayotgan tushuncha haqida gapirishmoqda. Yoz

"Aytish kerakki, agar mintaqada davlatlari bugun suv va ekologiya masalasida qat'iy tartibli qararlarga kelmasa, ertaga iqtisodiy zarar hamda ijtimoiy inqirozlarning oldini olish imkonsiz bo'lib qoladi. Shu sababli ushbu sammit – kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni his qilgan holda tashlangan eng muhim qadam, desak, ayni haqiqat. Qolaversa, Orolni qutqarish va suv xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy birlikning eng oliy sinovidir."

fasil tobora issiqroq va quruqroq bo'lib boryapti, cho'llar kengayayotgani yana ham achinarli. Bunday sharoitda, hatto Kaspiy dengizi ham qirg'oqlaridan chekinmoqda. Natijada mintaqada yog'ingarchilik kamroq, iqlim yanada issiqroq bo'lib borayotir.

To'rtinchidan, ko'plab muammolar eskirgan infratuzilma bilan bog'liq. Ma'lumki, kanallar, to'g'onlar va suv tarqatish tizimlarining yomonlashishi tufayli qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishda suvning yarmi yo'qoladi. Yillar davomida mutaxassislar zamonaviy tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etish zarurati haqida gapirishmoqda. Ammo bu texnologiyalar hali keng qo'llanilayotgani yo'q.

Mavjud muammolarni bartaraf etish, qolaversa, suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish

yordamida suv ta'minoti hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rinni tutadi.

Mazkur tamoyillar integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqaviy birlik ifodasi

Markaziy Osiyo davlatlari uchun suv – bu shunchaki resurs emas, balki hayot va kelajak demak. Shu jihatdan, Ostona sammiti "Markaziy Osiyo – yagona va ahil oila" strategik g'oyasining navbatdagi amaliy ifodasidir.

Kitob javoningizga

Ibratli hayot e'tirofi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Xalqaro moliya kafedrası professori, iqtisodiy fanlari doktori, professor Gulchehra Axunovaning "Zamon bilan hamnafas ayol" nomli kitobi chop etildi.

Mazkur asar olimaning 85 yillik tavallud ayomi munosabati bilan tayyorlangan bo'lib, unda yurtimiz ilm-fan namoyandalari, turli muassasa hamda tashkilotlar rahbarlari, hamkasblari va shogirdlarining samimiy dil izhorlari jamlangan. Kitob sahifalari orqali o'quvchi nafaqat bir olimaning hayot yo'li, balki uning ilmiy izlanishlari, jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi hamda inson sifatidagi yuksak fazilatlar bilan ham yaqindan tanishadi.

Qolaversa, ushbu kitobda professor Gulchehra Axunovaning ko'p yillik samarali mehnati, ilmiy yutuqlari va yosh kadrlarni tarbiyalashdagi beqiyos hisssasi e'tirof etilib, uning ilmiy faoliyati hamda hayot yo'li ko'plab yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan.

Kitob zamon bilan hamqadam yashagan, o'z mehnati va kasbga sadoqati bilan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan ayol siymosini yorqin tamsillarda ifodalagan.



"Xalq so'zi".

Noyob qushlar tabiatga qo'yib guborildi

Yo'rg'a tuvaloq – Qizilqum cho'li ekotizimining noyob qushi bo'lib, u biologik xilmaxillikni saqlashda muhim o'rinni tutadi. Ushbu qush nafaqat O'zbekiston tabiatiga bezagi, balki xalqaro miqyosda ham muhofazaga muhtoj turlardan hisoblanadi. Shu bois yo'rg'a tuvaloq O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi hamda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Qizil ro'yxatiga yo'qolib ketish xavfi ostida turgan tur sifatida kiritilgan.


G'amxo'rlik

So'nggi yillarda Navoiy viloyatida ham yo'rg'a tuvaloqlarni asrash va ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Xususan, shu maqsadda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Birlashgan Arab Amirliklarining "Yo'rg'a tuvaloqni asrash" markazi hamda "Falcon Hunting Solutions" MChJ o'rtasidagi hamkorlik doirasida samarali ishlar olib borilyapti.

Yo'rg'a tuvaloqlar tabiiy muhitga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi, – deydi ekolog olim Eshmamat Tog'ayev. – Agar ular uchun qulay sharoit yaratilsa, populyatsiyani barqaror darajada saqlab qolish imkoniyati yuqori.

Yaqinda hamkorlar tomonidan Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlarining cho'l hududlariga 2400 ta yo'rg'a tuvaloq qo'yib yuborildi. Shu bilan birga, ularning yashash muhitini muhofaza qilish va aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish yuzasidan ham targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Temur ESHBOYEV ("Xalq so'zi").



"VIRTUAL OLAM"NING ASIRIGA AYLANMANG

Tehnologik taraqqiyot bashariyatga misli ko'rilmagan imkoniyat va qulayliklar taqdim etgani rost. Lekin har nening ham o'z soyasi bo'lgani kabi raqamli qulayliklar ham ijtimoiy illatlarni urchitmoqda, aniqrog'i, hayotimizga o'zimiz olib kirmoqdamiz. E'tibor bergan bo'lsangiz, keyingi vaqtda transportda, istirohat bog'ida, oilaviy davralar, hatto, to'y-hashamlarda ham kishini chuqur o'yg'a toldiruvchi bir xil manzaraga duch kelaymiz. Bu – o'nlab yoshlar, aksariyat maktab o'quvchilarining dunyoni unutganicha telefonning zangori ekraniga "mixlanib" qolayotgani.

Ularning vujudini yonimizda qoldirib, xayol va ruhiyatini allaqayoqlarga olib ketgan "PUBG Mobile" deb ataluvchi, millionlab odamlarni o'z domiga g'arq qilayotgan "virtual olam"dir. Taassufki, bu "front"ning asiriga aylangan yoshlar bir muddat o'tgach, o'sha "front"ning qurboniga aylanmoqda.

2025-yil kuzining ilk kunlari Pokistondan tarqalgan xabar ko'pchilikni hayratga solishi bilan birga hushyorlikka chaqirgan edi, – deydi Nurafshon shahri Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi bosh mutaxassisi, pedagog Fotima To'xtanazarova. – Tarqatilgan rasmiy axborotga ko'ra, 14 yoshli Ali ismli pokistonlik bir necha kun davomida xonada qamalib olib "PUBG"da o'yin o'ynaydi. Onasining doimiy tanbehleri va "PUBG"dagi navbatdagi mag'lubiyat unga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday pallada o'smir yigit qurolni qo'lga olib onasini, akasi va ikki singlisini otib tashlaydi. Sud bolani umrbod qamoqqa hukm qildi. O'lim jazosidan uni faqat yoshi qutqardi – qotillik paytida u atigi 14 yoshda edi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: nima uchun aynan "PUBG" yoshlar ongini bu qadar tez egallaydi? Ruhshunoslarning fikricha, bu o'yin inson miyasidagi "mukofotlash tizimi"ni mahorat bilan boshqaradi. Har bir otilgan aniq o'q, har bir topilgan virtual qurol yoki har bir g'alaba uchun beriladigan "Winner Chicken Dinner" unvoni miyada dofanini zavqlanish gormonining keskin ortishiga sabab bo'lishi mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan. Bola hayotda erisha olmagan e'tirofni "virtual front"da osonlik bilan topmoqda. Maktabda o'zlashtirishi

sust, bahosi past, tengdoshlari orasida obro'si bo'lmagan o'smir "PUBG" olamida "professional jangchi"ga aylanadi. Bu illyuziya shu qadar kuchliki, vaqt o'tishi bilan bola real hayotdagi qiyinchiliklardan qochib, faqat o'sha virtual hududda yashashni istay boshlaydi. Bu esa narkotik yoki alkogol qarag'ildand kam bo'lmagan ruhiy tubelkni keltirib chiqarmoqda.

Statistik ma'lumotlar "PUBG" o'yinchisi kuniga 4 soatdan 8 soatgacha vaqtini virtual olamda o'lkazayotganini ko'rsatadi. Demak, o'smir yoshligining eng unumdor vaqtini, ilm egallashi va jismonan chiniquishi kerak bo'lgan yillarining deyarli yarmini havoga sovurmoqda.

Deylik, kuniga 5 soat o'yin o'ynaydigan bola 1 yilda 1825 soatini virtual jangda olish uchun sarflaydi. Bu vaqt ichida ikkita xorijiy tilni mukammal o'rganish

yoki bitta hunarning yetuk ustasi bo'lishi mumkin.

"PUBG" nafaqat vaqt o'g'risi, balki salomatlik kushandasi hamdir. Doimiy ravishda egilgan holda telefonga tikilish umurtqa pog'onasining jiddiy qiyshayishi (skolioz) yoki bo'yin umurtqalari osteoxondroziga olib keladi. Ko'z nurining erta pasayishi esa hozirgi avlodning umumiy muammosiga aylanib ulgurdi. Achinarlisi, ruhiyatdagi o'zgarishlardir.

O'yindagi doimiy agressiya, otishma va o'ldirish sahnalari bolaning his-tuyg'ularini so'ndiradi, – deydi O'rta Chirchiq tumanidagi 49-umum ta'lim maktabi psixologi Zohida Ibodova. – U hayotda ham muammolarini jahl yoki kuch bilan hal etishga moyil bo'lib qoladi. Mag'lubiyatga uchraganida esa telefonini yerga urib sindirish, ota-onasiga baqirish,



Ogohlik

o'yindan chalg'itgan yaqinlarini dushman deb bilish – bularning barchasi og'ir ruhiy buzilishning ilk belgilari. Bu esa bolaning sog'lom ulg'ayishiga to'sqinlik qilishi aniq. O'yin ichidagi xaridlar, ya'ni "skin" – "virtual kiyim" va qurol-yarog' uchun "virtual front" askarlari bo'lgan yoshlar hamyonidagi pullarini sarflamoqda. Ota-onaning mashaqqat bilan topgan mablag'ini bu kabi hech qanday moddiy qiymatga ega bo'lmagan "piskel"lar uchun sarflash iqtisodiy isrof bilan birga ma'haviy qashshoqlikning boshlang'ich belgilari hamdir. Afsuslanarlisi, o'yin uchun pul topish maqsadida bu azamat jangchilar ota-onasining plastik kartalaridan yashirincha pul yechib olayotgani haqidagi xabarlar ham eshitilmoqda.

Muloqotga asoslangan o'yin, deya talqin qilinuvchi bu virtual o'yin jamiyatda

o'zaro mehr-oqibat rishtalarining darz ketishi va odamovi, ekran ortiga yashiringan o'smirlarning voyaga yetishiga sabab bo'lmoqda. Ehtimol, nuqsonni faqat "aqli matoh" ichidagi "virtual dunyo"dan emas, ota-ona hamda pedagoqlardan ham qidirish kerakdir va bu adolatdan bo'lar. Darhaqiqat, virtual o'yinlarning bu qadar ommalashgani ma'naviy-tarbiyaviy bo'shliqlarning oqibati ekanligi ayon. Agar bola oila yoki ta'lim muassasasida yetarlicha e'tibor ko'rmasa, u g'amxo'rlikni "virtual olam"dan izlaydi. Agar unda kitobxonlik, sport yoki biron hunarga ishtiyoq shakllantirilmasa ekan, bola o'z hayotini "virtual jang" maydonlarida qurbon qilaveradi.

Hayot – o'yin emas. Uni birgina "Restart" tugmasini bosish orqali qaytadan boshlab bo'lmaydi. Bolaning qo'ldan telefonni tortib olish yagona maqbul yechim bo'lmagani kabi, uni o'z holicha tashlab qo'yish ham chora emas. Demak, muhtaram ota-ona va mo'tabar muallimlar farzand tarbiyasida hamkorlik va hamfikrlikni mahkam tutishlari lozim. Toki, ertangi kun egalari va kelajak bunyodkorlari bo'lgan yosh avlod vakillarining umri raqamli dunyoda xazon bo'lmasin. Toki, yangi nasillar "virtual front" qurbonlariga aylanmasin!

Otabek ISROILOV ("Xalq so'zi").

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti O'zbekistonning bolalar onkologiyasiga qarshi kurashdagi yetakchiligini e'tirof etdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1242. 23 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyotga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va mulg'iga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyotga kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G. Bahromov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 03.00 Topshirildi – 03.10 **1 2 3 4 5 6**